

TAJIRIBA GURUHLARIDAGI HAYVONLARNI OZUQLANTIRISH VA ASRASH SHAROITI

Assistent M. A. Nortasheva talabalar

Sh.Vapayeva

I.O'razimbetov

*Samarqand Davlat Veterinariya meditsinasi
chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti*

Аннотация: *Hayvonlarni ozuqlantirish, saqlash, asrash sharoiti, sog'ib olinadigan sut miqdori, sigirlarning tuqqandan keying ozuqasiga e'tibor va buzoqlarni asrash, ularning ozuqasi.*

Kalit so'zlar: *saqlash, asrash, parvarishlash, oziqlantirish, sut sog'ib olinishi va miqdori.*

Ma'lumki, barcha turdagi chorva mollarini shu jumladan, sog'in sigirlarni mahsuldorligiga ta'sir qiladigan asosiy omil bu oziqa omilidir. Tadqiqotchilarning ta'kidlashlaricha, hayvonlarni mahsuldorligiga ta'sir qiladigan barcha omillarni 59-60 foizini oziqa omili tashkil qiladi.

Shuni ta'kidlash lozimki, sog'in sigirlarning oziqlantirish sharoiti bir xil bo'lmaydi, ya'ni u sigir tuqqandan keyin to laktatsiyaning oxirigacha o'zgarib turadi. Sog'in sigirlarga tuqqandan keyin 0,5-1,0 kg bug'doy kepagidan yoki omixta emdan tayyorlangan iliq xoldagi atala ichkiziladi. Shundan so'ng sigir 2-3 kun mobaynida xohlaganicha sifatli pichan va sifatli omixta em bilan oziqlantiriladi. Keyingi kunlarda sigirlarning ratsioniga shirali va yashil oziqalar, omixta emlar kiritiladi. Boshqacha qilib aytganda, tuqqandan keyin 10-15 kun o'rtacha sut mahsuldorligiga qarab me'yordagi oziqlantirishga o'tiladi.

Sog'in sigirlarni iydish to'liq ratsion asosida oziqlantirishga o'tgandan keyin boshlanadi. Iydishni tashkil etishdan asosiy maqsad sigirlarni sut mahsuloti bo'yicha genetik potensialidan to'liq foydalanishdir. Buning uchun sog'in sigirlar ratsioniga qo'shimcha holda oziqa qo'shib beriladi. Agar sigir sutini ko'paytirs, qo'shib beriladigan oziqa miqdori ko'paytiriladi va bu jarayon sigirning sut berishi o'zgarmaguncha davom ettiriladi.

Odatda iydish jarayoni 2-3 oy davom etadi. Bu jarayondan keyin sigirlar me'yor darajasida oziqlantiriladi, aks holda qo'shimcha oziqlantirish natijasida sigirlar ortiqcha yog' to'playdilar va oziqani sut bilan qoplash xususiyati bo'lmay qoladi, ya'ni xo'jalikka ortiqcha xarajatga sabab bo'ladi. Iydishda xo'jalikning oziqa bazasi va podadagi sigirlarning imkoniyati hisobga olingan holda birinchi marta avans tariqasida 2-3 oziqa birligi 2-xolatda esa 1 oziqa birligi qo'shib berish mumkin. Iydish jarayonining uzoq davom etishi samara bermaydi. SHuni ham unutmaslik kerakki, laktatsiya davomida beradigan jami sutni 40-50 foizini birinchi 100 kunda beradi. Shuning uchun ham shu davrda o'tkazilgan iydish jarayoni samarali hisoblanadi.

Sog'in sigirlarga oziqlantirish ratsioni tuzishda sigirlarning tirik vazni va bir kunda beradigan sut miqdori e'tiborga olinishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Misol uchun: sigirning tirik vazni 300 kg bo'lsa, bir kunda 3,2; 400 kg bo'lsa 4,0; 500 kg bo'lsa 4,7 oziqa birligini talab qiladi. Har 1 kg olingan sut uchun eng kamida 0,5 o.b. kerak bo'ladi. Shularni e'tiborga olgan holda, sigirlarga bahor, yoz oylariga mo'ljallab, ratsion tuzish maqsadga muvofiq sanaladi.

Sigirlarni saqlash va oziqlantirish texnologiyasi. Sog'in sigirlarni saqlaydigan maydonlarning uzunligi 68 m, eni 16 m ni tashkil qilib, umumiy yuzasi 1088 m² ni tashkil qiladi. Bunda har bir bosh sog'in sigirga 11,1 m² to'g'ri keladi. Qoramollar maxsus bokslarda saqlanadi. Bokslar quruq bo'lib, to'shamalari har uch haftada bir marta almashtiriladi, bu zoogigienik me'yor darajasiga to'g'ri keladi. Suv bilan ta'minlash ikkita artizandan foydalaniladi. Umuman bir bosh sigirga 80-100 l suv to'g'ri keladi.

Biz ilmiy tadqiqod olib borayotgan xo'jalikda mavjud ozuqalardan somon, gul beda, makkajo'xori, lavlagi, sabzi, sholg'om, tabiiy pichan silosi, arpa yormasi, bug'doy yormasi, tosh tuzi, maydalangan tuz, monokalsiyfosfat va boshqa bor ozuqalar qo'shib beriladi. Silos sinaj tayyorlash joylarini o'rganib chiqqanimizda uning eni 4 metr, uzunligi 25 metr, chuqurligi 2,5 metrni tashkil etadi.

Buzoqlarni saqlash va oziqlantirish. Buzoqlar maxsus binolarda saqlanadi. Ularning maydonining uzunligi 38 m, eni 8 m ni tashkil qiladi. Umumiy yuzasi 304 m² bo'lib, bir bosh buzoqqa 3,3 m² maydon to'g'ri keladi. Ularda 32 ta bokslar mavjud bo'lib, quruq xolda saqlanadi. Bulardan tashqari bino yonida yayratish maydoni ham mavjud. Buzoqlarga ozuqa berishda silos qo'shilmaydi., sababi ularning ozuqasida silos qo'shilganda ichi o'tish xolati kuzatiladi. Ozuqaning tarkibida:

Konsentratlar – 35-40 % (kunjara, bug'doy va makkajo'xori yormasi)

Dag'al ozuqalardan – 40-45 % (beda pichani va somon)

Shirali ozuqalardan – 10-15 % (qand lavlagi)

Mineral moddalardan – tuz va kalsiy qo'shib aralashtirib beriladi.

Go'shtga boqiladigan qoramollarni saqlash va oziqlantirish. Go'sht etishtirish bilan shug'ullanmaydi, ammo fermadagi brak bo'lgan qoramollar bo'rdoqilanib, kelishilgan xolda sotiladi.

Sigirlarni sog'ish texnologiyasi. "Bobur Murodaliyevich" fermer xo'jaligida qo'lda va sut sog'ish qurilmalaridan foydalaniladi. Sigirlarni sog'ishdan oldin ularni elini nam doka bilan artib, massaj (45 soniya kamida) qilib, sog'ish apparati kiydiriladi.

"Bobur Murodaliyevich" fermer xo'jaligida sog'in sigirlar 2 mahal sog'iladi, 1 bosh sigirdan 20 l sut sog'ib olinadi, sutning yog'liligi 3,6-3,9 %, tashkil qiladi.

Shunday qilib, fermer xo'jaligida qoramolchilikni barqaror rivojlantirish va uni samarali tarmoqqa aylantirish uchun sharoit yaratilgan.

ХУЛОСА

Barcha turdagi chorva mollarini shu jumladan, sog'in sigirlarni mahsuldorligiga ta'sir qiladigan asosiy omil bu oziqa omilidir. Tadqiqotchilarning ta'kidlashlaricha, hayvonlarni mahsuldorligiga ta'sir qiladigan barcha omillarni 59-60 foizini oziqa omili tashkil qiladi.

Shuni ta'kidlash lozimki, sog'in sigirlarning oziqlantirish sharoiti bir xil bo'lmaydi, ya'ni u sigir tuqqandan keyin to laktatsiyaning oxirigacha o'zgarib turadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Chorvachilik tarmog'ini yanada rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi, PQ-4243-sonli qarori. Toshkent. 2019 yil 18 mart.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Chorvachilik tarmog'ini davlat tomonidan ko'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4576-sonli qarori. Toshkent. 2020 yil 29 yanvar.
3. "Chorvachilik tarmoqlarini davlat tomonidan yanada qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5017-sonli qarori. Toshkent. 2021 yil 3 mart.
4. U. Nosirov, Q. Shokirov, M. Dosmuhamedova- Golshtin zotli naslchilik zavodlarini shakllantirish. TDAUJ. Zooveterinariya. 2014. №7. 68b.
5. A.K.Kaxarov, M.K.Narbaeva. Qoramolchilikda golshtinlashtirishning zootexnikaviy va iqtisodiy samaradorligi. // Zooveterinariya. 2013. № 9. 26-27 b.
6. Nosirov.U.N. va boshqalar. Chorvachilikda klassik va zamonaviy seleksiya usullari. Toshkent. 2008. 472 b.